

PEDAGOGIK DASTURIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALASHNING SAMARALI TOMONLARI

Muhammadjonova O‘g’iloy Bahodirjon qizi

FarDU 2- kurs talabasi

Sherqo‘ziyeva Zarnigor Farhodjon qizi

FarDU 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada, pedagogik dasturiy vositalar haqida hamda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish usullari shuningdek, pedagogik dasturiy texnologiyalar haqida shuningdek, ushbu vositalardan keng foydalanishning samarali usullari va yo‘llari haqida keng ma’lumotlar berilib o‘tilgan.

Аннотация: В данной статье представлена обширная информация о педагогических программных инструментах и методах использования педагогических программных средств, а также о педагогических программных технологиях, а также об эффективных методах и способах широкого использования этих инструментов.

Abstract: This article provides extensive information about pedagogical software tools and methods of using pedagogical software tools, as well as about pedagogical software technologies, as well as about effective methods and ways of using these tools widely.

Kalit so‘zlar: pedagogik vositalar, ta’lim jarayoni, o‘quv jarayoni, avtomatlashtirish, didaktik vosita, dasturiy mahsulot

Ключевые слова: педагогический инструментарий, образовательный процесс, образовательный процесс, автоматизация, дидактический инструмент, программный продукт

Key words: pedagogical tools, educational process, educational process, automation, didactic tool, software product

KIRISH

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlataladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta‘minot, qo‘sishma yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

o‘rgatuvchi dasturlar – o‘quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi;

test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarini tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo‘llaniladi;

mashq qildirgichlar - avval o‘zlashtirilgan o‘quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

o‘qituvchi ishtirokidagi virtual o‘quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar (Virtual borliq tizimlari).

Pedagoglarning pedagogik dasturiy vositalar asosida imkon qadar ko‘proq ma’lumotlarniyoritishga intilishi o‘quvchini ortiqcha toliqtirishga olib kelishi mumkin. O‘z navbatidama’lumotlarni uzatish tezligini oshirish esa ma’lumotlarni o‘zlashtirish sifatining pasayishiga, xatoliklar sonining ortib borishiga, o‘quvchining o‘zini amalga oshirilgan tadqiqotlar kompyuterda ishlashda bilim oluvchilarning aqliy ish qobiliyati o‘zlashtiriladigan ma’lumotlar hajmiga teskari proporsional ravishda o‘zgarib borishini e’tirof etadi.

Bu quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- ko‘rish organlariga tushadigan yuklamaning ortib borishi;
- yangiliklari qabul qilishda yuzaga keluvchi dastlabki ruhiy ko‘tarinkilikning tinib qolishi;
- yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noaniqlik va xatoliklar tufayli salbiy hissiyotlarning yig’ilib borishi;
- katta miqdordagi ta’limiy resurslarni qabul qilish undan keyingi axborot resurslarini faol o‘zlashtirishga to‘sinqlik qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bu holat ta’lim jarayonida pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqish va joriy etishda zarur didaktik, psixofiziologik hamda metodik talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zaruratini yuzaga chiqaradi. Pedagogik dasturiy vositalarning psixofiziologik jihatdan samaradorligi birinchidan: talabalarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishi, tarbiyalanganlik va intellektual rivojlanganligi, ishchanlik ko‘rsatkichlari, motivatsion barqarorlik darajalari belgilanadi. Ikkinchidan, o‘qituvchi faoliyati bilan bog’liq bo‘lib, o‘qitish konsepsiyalari, pedagogik texnologiyalari va ta’lim vositalaridan ratsional foydalanish ko‘rsatkichlari, o‘qituvchining mehnat faoliyatiga nisbatan barqaror motivatsiyasi, ish qobiliyati bilan belgilanadi. Zamонавиу kompyuter texnikasi erishgan yutuqlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, an’anaviy ta’lim erishgan barcha yutuqlarni o‘zida aks ettirgan, uni yangi texnika, texnologiya yutuqlari bilan to‘ldirgan vosita bilan ta’minlash bugungi kunda juda ham dolzarb masaladir.

Bugungi kunda ta'limning individualligini ta'minlash, ta'lim oluvchiga vaqt va fazo jihatidan qulaylik yaratuvchi vositalardan biri bu elektron kitoblardir. Ta'lim berishning mazkur vositasi antiruvchi asosiy element hisoblanadi.

Autoplay dasturi. Keyingi yillarda multimedia hujjatlarini yaratishga oid juda ham ko‘plab dasturiy ta“minotlar ishlab chiqilgan. Ulardan biri AutoPlay dasturidir. Istalgan fayl yoki fayllar to‘plamini bitta muhitga birlashtirish, qolaversa, CD yoki DVD disklar uchun

Autorun-menysusi hosil qilishda AutoPlay Media Studio eng kuchli vizual paket hisoblanadi. Multimedia texnologiyalariga asoslangan amaliy dasturlarni yaratish uchun AutoPlay Media Studio dasturidan foydalanish foydalanuvchilar uchun juda oson va qulay interfeysni taqdim etadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

AutoPlay Media Studio bilan ishlashda deyarli dasturlash ishlari talab qilinmaydi Foydalanuvchi faqat turli dizaynli dasturiy muhitni tanlash uchun bir nechta tayyor shakllardagi loyiha shablolaridan foydalanishi mumkin. Bunda amaliy dastur muhitini dizaynga boy holatga tashkil etish uchun AutoPlay dasturiy vositasi tarkibida tayyor obektlar mavjud bo‘lib, ular tarkibiga buyruq tugmasi, tovush kuchaytirgichi, fayllarni printerdan bosmaga chiqarishni ta‘minlovchi, Web-saytlarni ochuvchi va ularga murojaatni amalga oshirib beruvchi qator funksional obektlarni kiritish mumkin. Amaliy dastur uchun grafik qobiqlarni yaratish, uni avtomatik ishga tushirish uchun AutoPlay Media Studio barcha kerakli fayllarni o‘zi yaratadi. Foydalanuvchilar zimmasiga esa faqat qattiq disk va kompakt diklarni yozish uchun tayyor loyihalarni shakllantirish vazifasi qoladi. Ta’lim-insonlar faolligini belgilaydigan muhum bir tarmoqqa aylanmoqda.

Shuning uchun ta'lim tizimida inson faoliyati bilan bog'liq ko‘pgina muammolarni hal etish zarur. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu vazifalarni ilmiy-texnik jarayonning o‘zgarishi bilan bog'liq holda ta'lim nazariyasini yaratish, ya’ni fanni jamiyatning faol, samarali ishlab chiqarish kuchiga aylantirish orqali amalga oshirish mumkin.

XULOSA

Pedagogik texnologiyaning ta'limdagi amaliylik hamda tashkiliy-uslubiy imkoniyatlarini amalga oshirishga yunaltirilganligi, uning aniq vositalar yordamida hayotga tadbiq etilishi butun jahon pedagoglarining unga e'tiborini kuchaytirmoqda. Bu yunalishga turlicha qarashlar mavjud, ba'zi pedagoglar pedagogik texnologiyada ta'limni tabaqalashtirish vositasini ko‘rmoqdalar, boshqalarini kam mehnat sarflab yo‘qori natijalarga erishish imkoniyatlari, pedagogik texnologiyada barcha ta'lim oluvchilarni oldindan belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasiga etkazish mumkinligi qiziqtirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to`g`risida”. “Qishloq hayoti” gazetasi 03.06.05 у.
2. Rifatovna, A. E. (2022). Anthropocentrism of Phraseology. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(5), 198-200.
3. Аджеминова, Э. Р. (2021). ВЛИЯНИЕ ИДИОЭТНИЧЕСКОГО АСПЕКТА НА РАЗВИТИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(5), 99-103.
4. Аджеминова, Э. Р., Джагаспаниян, Р. Н., & Исмаилов, Р. С. (2022). ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ И ОБРАЗНЫЙ СТРОЙ ЯЗЫКА. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(18), 121-125.
5. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». - T.:O'zbekiston, 1997-yil.
6. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001
7. Azizzxo'jaev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Reklama –rejalar)